

OCHILMAY SONGAN ISTE'DOD YOXUD QISQA UMRLIK ULKAN MEROS

НЕ РАСКРЫВШИЙСЯ, УГАСШИЙ ТАЛАНТ, ИЛИ КОРОТКАЯ, НО ВЕЛИКАЯ НАСЛЕДИЕ

AN UNFULFILLED TALENT OR A GREAT LEGACY OF A SHORT LIFE

Abdumurodov Temur Olmos o‘g‘li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi sh.

Samarqand, O‘zbekiston e-mail: temurabdumurodov1@gmail.com

Annotatsiya: Bilamizki, o‘zbekning eng navqiron va kuchga to’la, zabardast shoir va yozuvchilarini qatag’on mashinasi o‘z domiga tortib ketgan va uning oqibatida endigina ijodining eng yuksak cho’qqilariga qadam qo’yayotgan yosh va iste’dodli shoirlar erta ochilmasdan so’ngan. Ushbu maqolada o’shanday erta so’ngan tug’mal iste’dod sohibi Usmon Nosirning ijodi va bizga qoldirgan beba ho meroslari va uning Jadidchilik yo’nalishi bilan bog’liq jihatlari haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Usmon Nosir, shoirning ijodiy merosi, Nil va Rim, Yurak, Usmon Nosir ijodida jadidchilikning o’rni, shoir ijodining asosiy g’oyalari

Аннотация: Известно, что репрессивная машина поглотила самых молодых, полных сил и могучих поэтов и писателей Узбекистана, вследствие чего многие талантливые молодые поэты, находившиеся на пике своего творчества, угасли, так и не успев полностью раскрыться. В данной статье речь пойдет о таком рано ушедшем, прирожденном таланте – Усмоне Носире, его творчестве, бесценном наследии, оставленном нам, а также о его связи с джадидизмом.

Ключевые слова: Усмон Носир, творческое наследие поэта, «Нил и Рим», «Юрак», роль джадидизма в творчестве Усмона Носира, основные идеи поэзии поэта.

Annotation: It is well known that the repressive machine swallowed up Uzbekistan's youngest, most energetic, and outstanding poets and writers. As a result, many young and talented poets, who were just beginning to reach the peak of their creativity, perished before they could fully blossom. This article discusses one such prematurely lost natural talent – Usmon Nosir, his works, the priceless legacy he left us, and his connection to the Jadidism movement.

Keywords: Usmon Nosir, the poet's creative legacy, Nil va Rim, Yurak, the role of Jadidism in Usmon Nosir's works, main themes of the poet's creativity.

KIRISH

Dunyoda shunday insonlar borki, ular garchi bu dunyoni tark etgan bo'lsalarda o'z ismlarini bir biridan ajoyib bo'lgan she'r va asarlariga boqiy muhrlab ketishgan. Ana shunday o'z ismini o'zining beba ho bo'lgan she'r va asarlariga abadiyga muhrlab ketgan shoirlardan biri Usmon Nosirdir. U o'zbek xalqining suyukli yozuvchisi. U qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da o'zidan bizga noyob asarlar qoldirib ketgan. Usmon Nosir 1912-yilda Namangan shahrida tug'ilgan. Uning bolalik yillari og'ir o'tgan. O'z harakatlari bilan Samarqanddagi pedakademianing (hozirgi SamDU) til va adabiyot fakultetiga o'qishga kirib o'sha yerda ta'lim olgan ammo, sog'lig'idagi muammolar sababli oxirigacha tamomlay olmagan. U dastlabki she'rлarini internatda o'qib yurgan kezlarida yozib boshlagan. Uning ilk she'riy to'plami "Quyosh bilan suhbat" nomi bilan chiqqan. Har qanday asar yoki she'rda sarlavha eng muhimi. Insonlar kitob olishdan avval uning sarlavhasiga qaraydi, agar sarlavhasi insonni o'ziga jalb qila olsa, u odam albatta kitobni oladi. Usmon Nosirning ham ilk she'riy to'plami ajoyib nom ostida chiqdi. U haqida Moskva gazetalarida sharqa Pushkin paydo bo'libdi deb yozishgandi. U haqiqatda iste'dodli va mohir yozuvchi edi. Shoир har bir so'zlarni marjon shodalarini ipga tergandek terar edi. Shoирning ijodi endi kurtak ochib boshlagan vaqtida ayovsiz qatag'on mashinasi uni o'z domiga tortdi va 1937-yil qamoqqa olindi. Erkinlikni sevuvchi erk kuychisi o'zbekning Lermontovi deb atalgan shoир tutqunlik azoblaridan 1944-yilda vafot etdi.

ASOSIY QISM

O'zbek adabiyotida Usmon Nosirning o'rni: Shoирning ijodiy merosi beshta she'riy kitob, to'rtta drama va uchta dostonidan iborat. Usmon Nosirning adabiy merosi «Quyosh bilan suhbat», «Safarbar satrlar» (1932), «Traktorobod» (1933), «Yurak» (1935), «Mehrim» (1936) hamda «Norbota» (1932), «Naxshon» (1934) deb nomlanuvchi ikki doston va «Atlas», «Zafar», «Dushman», va «So'nggi kun» nomli to'rtta she'riy dramalardan tashkil topgan. U 1937-yil A. S. Pushkining 100 yilligi munosabati bilan uning "Bog'chasarov fantani" asarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Shuningdek, u M. Y. Lermontovning "Demon" ("Iblis"), va "Egmont" tragediyasini ham o'zbek tiliga tarjima qiladi. XX asrning 30-yillarida O'zbekiston radio qo'mitasi rahbari Qurbon Beregin bu asar ham o'zbek tilida qo'yiliши shart degan fikrga keladi va uni tarjima qilishni Usmon Nosirga topshiradi. Lekin 1937-yil avgust oylarida Usmon Nosir hibsga olingani sabab "Egmont" tragediyasini o'zbek tiliga o'girgan odam sir tutiladi. Naim Karimov izlanishlari natijasida o'tmishning bizdan yashirgan maxfiy ma'lumoti oshkor bo'ladi. U har bir asarlarini mohirlik bilan yaratgan. "Yurak", "Monolog", "Yo'lchi", "Nil va Rim" she'rлari Usmon Nosirning tug'ma iste'dod sohibi ekanini ko'rsatadi. Ha Usmon Nosir haqiqiy iste'dod egasi edi. Uning har bir asari o'zbek xalqining qalbidan chuqur joy egallagan. [3:, 6:]

Usmon Nosirning ijodida erk, ozodlik va milliy o'zlikni anglash g'oyalari: Shoир ijodi erk, xurlik va mustaqillik g'oyalari bilan sug'orilgan. Uning she'rлarida xalqni uyg'onishga, erkinlik uchun kurashga undovchi g'oyalalar serob, shuningdek,adolat va haqiqat uchun kurash kabi asosiy g'oyalalar ham mavjud.

"NIL VA RIM"

Lampam yonur... Yaralangan qanotday og‘ir

O‘y bosadi. Yuragimda go‘yo sel yog‘ir.

Qiynalamon. Tirishaman. Hushim parishon

O‘tmish, hozir va kelajak ko‘rinur har on.

Bu she'rning har bir misrasida chuqur ma'nou mavjud. Shoир bu she'rda o‘tmish va hozir o‘rtasidagi insonlarning hayotini qolaversa, kelajakning ham har on ko‘rinish berishini ta'kidlab o‘tgan. Uning "Nil va Rim" she'reni falsafiy oqimlar bilan sug‘orilgan va o‘zida chuqur ma'nolarni jamlagan.

Mana menman, u qullarning hech so‘nmas yodi,

Mana menman, falaklarga lov-lov o‘t qo‘yib,

Otalarimning boshidan poydevor uyib,

Ozodligim obidasin qurgan insonman!

O‘sha jonman, o‘sha qonman va o‘sha shonman!

She'rning ushbu satrlari erk, ruhiy yuksaklik va g‘urur bilan to‘yingan. Ular shoирning milliy o‘zligini, tarixiy merosini va ozodlikka erishish yo‘lidagi fidoyiligin ulug‘lashini aks ettiradi.

•Ilm-ma’rifat va taraqqiyot: Usmon Nosir Jadidchilik ta'sirida ulg'aygan shuning uchun ham ilm va ma'rifatni inson va jamiyat taraqqiyotining muhim omili deb hisoblagan. Shoир ijodida bilim va ma'rifatga chorlov asosiy g'oya sifatida shakllangan. Buni shoирning ilk "Quyosh bilan suhbat" she'riy to'plamida ko'rishimiz mumkin.

•Insoniylik tuyg‘ulari (sevgi, sadoqat, umid, yengilmaslik): Shoир o‘z asarlarida inson qalbining eng nozik kechinmalarini ochib bergan. Uning ijodida sevgi, sadoqat, umid va kurash g‘oyalari ustuvor hisoblanadi. Insoniylikni ulug‘lash eng yetakchi mavzular qatoriga kiradi. Shoирning "Yurak" she'rida sevgi, umid va kurash kabi insoniy tuyg‘ular jamlanmasini ko'rishimiz mumkin. U sevgi mavzusiga falsafiy yondashib, inson qalbidagi sof va ajib tuyg‘ularni tasvirlagan. Uning "Monolog" she'rida sevgi inson hayotining ajralmas qismi sifatida tasvirlanadi.

YURAK

Yurak, sensan mening sozim,

Tilimni nayga jo‘r etding.

Ko‘zimga oyni berkitding,

Yurak, sensan ishqibozim.

Ushbu satrlarda shoир yurakka murojaat qilib uni asosiy markazda ushlab turadi. Bu yurakning shunchaki his-tuyg‘u emas, balki ijodkorlikka va ilhomni uyg'otuvchi kuch ekanini anglatadi.

Itoat et!

Agar sendan

Vatan rozi emas bo‘lsa,

Yoril, chaqmoqqa aylan sen,

Yoril! Mayli, tamom o‘lsam!

She’rning so’nggi misralari eng kulminatsion qismidir. Shoир yurakni itoatkor bo’lishga chaqiradi, lekin bu oddiy itoat emas, balki vatanga bo’lgan fidoyilikdir. “Yoril, chaqmoqqa aylan sen” – agar yurak vatan uchun kerak bo‘lgan vaqtida u hatto yorilib, chaqmoqqa aylanib, fidokorlik qilishi kerakligi ta’kidlanadi. “Yoril! Mayli, tamom o’lsam!” – bu yerda she’r qahramoni o‘z vatani uchun qurban bo’lishga tayyorligini bildiradi.

Erkin Vohidov ta’biri bilan aytganda: “Iste’dod shunday bir gavharki, u dengiz tubida sadaf ichida ham gavhar; Iste’dod shunday bir zilol irmoqki, uning har qatrasida daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor; Iste’dod shunday bir gulki, uning har ochilmagan g’unchasida chamanlarning bo’yi tarovati bor. Usmon Nosir iste’dodi ana shunday gavhar, ana shunday irmoq, ana shunday g’uncha edi”.[4:] Haqiqatda Usmon Nosirning nomi ma’lum vaqt qoralanishiga qaramay uning asarlari o’sha qora kunlarda ham o’zidan yorqin nur taratib turaverdi va asrlarni o’zining jozibasi, energiyasi va mahobati bilan bosib o’tib keldi. Otashqalb shoир Usmon Nosir xotirasi nafaqat o’z tug‘ilib o’sgan yurtda, balki Kemerovada ham yodga olinadi. Kemerovoda har yili shoир she’riyatiga bag‘ishlangan adabiy kechalar o’tkaziladi. Bundan tashqari, u yerda Usmon Nosir muzeyi ham bor. Usmon Nosir she’rlari Kuzbass shoirlari tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. Shoир bir she’rida shunday bashorat qilgan edi:

Bargdek uzilib ketsam,
Unutmas meni bog‘im:
Ishimni hurmat qilur,
Gullardan haykal qurur.
Ming yillardan keyin ham
Unutmas meni bog‘im!
She’rlarim yangrab qolur —
Bir umrga o’lmayman!
Hayotimning davomi —
Kelajagimga homiy,
O’rnimga bog‘bon bo‘lur —
Bir umrga o’lmayman![5:]

Usmon Nosir ijodida jadidchilikning o’rni:

Usmon Nosir ijodida jadidchilik yo‘nalishining o’rni beqiyos bo‘lib, uning asarlari jadidlar ilgari surgan milliy uyg‘onish, milliy ongni shakllantirish, erkinlik, ozodlik va ilmu ma’rifat g‘oyalarni aks ettiradi. Jadidchilik – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan islohotparvar harakat bo‘lib, uning asosiy maqsadi xalqni ilm-ma’rifatga, milliy uyg‘onishga va ozodlikka chorlash edi. Shuning uchun ham Usmon Nosir ijodi jadidlar ijodi bilan birgalikda muntazam ravishda o’rganilib, tahlil qilinib kelinadi.[7:]

•Erkinlik va ozodlik g‘oyalari: Usmon Nosir she’riyatida erk, ozodlik va millat mustaqilligi g‘oyalari kuchli aks etadi. U jadidlarimiz singari xalqni uyg‘onishga, johillik va ongsizlikdan xalos bo’lishga chorlagan. Uning she’rlarida qo‘rqmaslik, jasurlik,adolat va haqiqat uchun kurashish va doimo ozodlikka intilish ruhi seziladi.

•Ilm-ma’rifat va taraqqiyotga intilish: Jadidlar singari Usmon Nosir ham bilim va ma’rifat taraqqiyotning asosiy omili deb hisoblagan. Albatta ilmu ma’rifat bu johillikdan qutilishning va dunyoga o’zgacha nigoh bilan boqishning asosiy omilidir. Axir biz ilm ma’rifat bilan dunyoni anglaymiz.

•Mustamlakachilik vaadolatsizlikka qarshi isyon: Usmon Nosir asarlarida chor Rossiyasi va keyinchalik sovet rejiminingadolatsizliklariga qarshi isyonkor ruh seziladi. U jadid adabiyoti singari mustamlakachilik, adolatsizlik va zo’ravonlikka qarshi kurashish g’oyalarini ilgari surgan.

•Vatanparvarlik va milliy g’urur: Usmon Nosir she’rlari ozodlik, xurlik va vatanparvarlik ruhi bilan sug’orilgan. U xalqning ezguligi, farovonligi haqida qayg’urib, o’z ijodida milliy o’zlikni, milliy an’ana va qadriyatlarni ulug’lagan.

2022-yil 10-fevral kuni O’zbekiston Prezidenti tomonidan “Otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash to’g’risida qaror qabul qilindi”.[3:] O’zbek xalqi buyuk farzandi xotirasini abadiylashtirish yo’llida birlashishi o’z yozuvchi va shoirlarining ijodini yanada chuqurroq o’rganib ularni butun dunyoga yetkazishi kerak.

XULOSA

Usmon Nosir o’zbek xalqining osmonda yulduz kabi parvoz va o’sha parvoz davomida o’zidan oltinga teng bo’lgan meroslar qoldirgan sevimli shoiridir. Usmon Nosir o’zining jo’shqin, erksevar, ozodlik, umid, sevgi, iztirob, taraqqiyot kabi insoniy hislarni o’zida jamlagan go’zal she’r va dostonlari bilan o’zbek adabiyotiga jar solib kelgan erksevar shoir edi. U she’riyatga porloq yulduz kabi kirib keldi va hammani o’ziga rom etdi. Uning she’rlari xuddi ohangrabo kabi insonni o’ziga jalb qilishga qodir, uning she’rlarida o’zgacha bir energiya va quvvat bor. Usmon Nosir asarlarining kuchi ham menimcha shunda, chunki uning go’zal she’rlari insonlarni bir qarashda o’ziga jalb qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baxtiyorova R. (2021). BETAKROR O’ZLIK VA SHE’RIYAT. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 6(6).(1-5-b.)
2. Mamajonova Dilshoda. (2024). USMON NOSIRNING POETIK TIMSOL YARATISH MAHORATI. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH (312-315-b.).
3. Nozima Yo’ldosheva. "USMON NOSIR ASARLARINING TILI VA USLUBI". Международный научный журнал № 14 (100), часть1. «Научный импульс» Октября , 2023.(476-479-b.)
4. Obitjon Karimov. (2024). USMON NOSIRNING BADIY OBRAZ YARATISH MAHORATI. Hamkor Konferensiyalar, 1(2), 182–187-b.
5. "USMON NOSIR SHE’RLARIDA ACHCHIQ HAYOT IZTIROBLARI".(2023). INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER’S THEORY, 1(9), 98-104.

Internet saytlari:

6. <https://oyina.uz/uz/article/3200>
7. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>